

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ERTAK DARSLARINI TASHKIL QILISH  
VA O'QITISH METODIKASI**

*Buxoro davlat pedagogika instituti  
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang'ich ta'lim)  
I kurs magistranti Axmedova Shahnoza*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ertak darslarini shakllantirish va o'qitish haqida malumotlar berilgan. Ertak darslarini tashkil etishning metodikalari o'rgatilgan.

**Kalit so'zlar:** folklor, xalq ijodi, mifalogiya, Sarmishsoy, ertak-doston, Ona tili o'qish savodxonligi, ertak, xalq teatri

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о формировании и преподавании уроков сказки в начальных классах. Были изучены методы организации уроков по сказкам.

**Ключевые слова:** фольклор, народное искусство, мифология, Сармишсай, сказки, Грамотность чтения на родном языке, сказки, народный театр

**Annotation.** This article provides information on the formation and teaching of fairy tale lessons in primary grades. Methods of organizing fairy tale lessons were taught.

**Keywords:** folklore, folk art, mythology, Sarmishsay, fairy tales, Native language reading literacy, fairy tales, folk theater

Xalq ijodi — xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyati; an'anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og'zaki badiiy ijodi (folklor), xalq musiqasi (musiqqa folklori), xalq teatri (tomosha san'ati), xalq o'yinlari (raqs), qo'g'irchoqbozlik, dor va yog'och oyoq o'yinlari (xalq sirki), xalq tasviriy va amaliy bezak san'ati hamda texnikaviy va badiiy havaskorlik kabi ijodiyot turlari. Yaratilishi va ijodiy jarayonida ko'pchilikning ishtiroki bo'lgan Xalq ijodi ning turlari xalq turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy mehnat darajasiga moye ravishda shakllanib, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib, doimiy ravishda mukammallashib, sayqallashib, tobora an'anaviylashib borgan va nihoyat, kasbiylik (professionallik) xususiyatiga ega bo'lgan, jonli ijro sharoitlari va kundalik amaliyotda bizgacha yetib kelgan. Shuningdek, Xalq ijodining bir qator qadimiy namunalari yozma manbalarda, tarixchi va yozuvchilarning asarlarida, qoyatoshlarda (Sarmishsoy, Zarautsoy rasmlari kabi), arxeologiya va arxitektura yodgorliklarida, uyro'zg'or buyumlarida saqlanib kelgan.

Inson nutqi shakllanishi bilan xalq og‘zaki badiiy ixodining qad. tur va janrlari ham qorishiq holda yuzaga kela boshladi. Kishilik badiiy tafakkurining turli shakllarini o‘z ichiga olgan bu sinkretik ijod namunalari ibtidoiy inson maishati va faoliyatining barcha jihatlarini bilan mahkam bog‘langan bo‘lib, qadimiy odamlarning diniy, e‘tiqodiy va mifologik qarashlarini, boshlang‘ich ilmiy (empirik) bilimlarini, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan. Biroq qadimiy folklarning bunday namunalari bizgacha yetib kelmagan, balki ularning izlari va ayrim qismlari xalqning yashash va turmush tarzi bilan bog‘liq turli-tuman tasavvur va qarashlarida, xalq urf-odatlarini, udumlari, marosimlari, bayramlari tarkibida, ba‘zi bir yozma manbalarda, keyingi davrlarda yozib olingan folklor asarlarida qoldiq holdagina saqlanib qolgan.

Folklor o‘zining muhim tomonlari bilan ijodkor uchun har jihatdan e‘tiborli va qimmatli ekanini qadimiy va hozirgi zamon adabiyoti tajribalari ko‘rsatib berdi. O‘zbek yozuvchilari folklor asarlarini chuqur o‘rganib borganlari va undan ijodiy foydalanganlari sari folklor va yozma adabiyotning o‘zaro munosabati tobora takomillashib o‘z samarasini bera boshladi.

Xalq og‘zaki ijodi yozuvchi va shoirlarning g‘oyaviy-badiiy jihatdan o‘shida, uslub xilma-xilligini yaratishda katta ijodiy maktab bo‘lib qoldi. Yozma adabiyotda o‘z ifodasini topgan folklor syujetlari va motivlari yozuvchi mahorati tufayli qayta sayqal topib, original asar sifatida yozma adabiyot mulkiga aylandi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotini bolalar folklorisiz tasavvur qilish mushkul, albatta. Bolalar folklori xalq og‘zaki ijodining alohida tarkibiy qismi bo‘lib, odatda, bolalar yoki ular uchun kattalar tomonidan yaratiladi. O‘zbek bolalar folklori alla, ertak, tez aytishlar, topishmoq, bolalar o‘yin qo‘shiqlari, erkalama, ermak, rivoyat va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Bolalar folklori bolaning tinglashiga, aytib yurishiga, o‘yiniga, qo‘shig‘iga moslangan bo‘ladi.

Folklor motivlari asosida, uning ta‘sirida yaratilgan epik asarlar orasida ertak-dostonlar keng o‘rin egallaydi. Agar Zafar Diyor boshqird xalq ertaklari syujeti asosida “Burgut” she‘r-ertagini yaratgan bo‘lsa, o‘zining tarbiyaviy mavzudagi bir ertak-dostonini “Yangi ertak” deb ataydi. Bularda shoir voqeani hikoya qilish, fikrni ifodalashda xalq ertaklari shakli va tasvir usulini qo‘llaydi. Bu o‘rinda tojik xalq ertagi asosidagi “Zangori gilam”, “Qaldirg‘och”, “Jannat” nomli yangi ertaklarni (shoirning o‘zi alohida ta‘kidlaganidek, bular chindan ham Yangi mazmundagi ertaklardir) yaratgan Sulton Jo‘raning izlanishlari ham xarakterlidir. Bularda shoir ertaklardagi tasvir uslubi va poetik vositalardan unumli foydalanadi. Masalan, u “Qaldirg‘och” ertak-dostonida tasvirni ertaklardagiday boshlab, o‘quvchini bevosita voqea tafsiliga olib kiradi.

Shu qushlar orasida,  
Atlasning qorasiday,  
Har qanoti qush kabi,

Otilganda tosh kabi –  
 Bir qaldirg‘och bor edi  
 To‘shchasi chipor edi.

Shoir o‘zining “Zangori gilam” adabiy ertagida folklor motivida original epik asar yaratishning yorqin namunasini ko‘rsatdi. Ertak ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda xalq o‘rtasida keng tarqalgan shu nomli ertak syujetidan keng foydalanilgan. Asar voqeasi xalq ertaklaridagidek:

Bor ekanda, yo‘q ekan,  
 Och ekanda, to‘q ekan, -

zaylida boshlanadi. Shoir xalq ertaklari bilan qorishib ketgan oddiy syujet zaminida xalqimizning asrlar bo‘yi orzu qilgan ezgu niyatlari amalga oshganini kishilarning sevinch va shodlik kayfiyatlarida ifodalaydi.

Ma‘lumki, ko‘p asrlik o‘zbek adabiyoti tarixida ko‘plab ijodkorlar xalq ertak va dostonlari bilan bir qatorda, afsona va rivoyatlarga ham murojaat qilib kelishgan. Birgina so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodining o‘ziyoq bu fikrimizga misol bo‘la oladi.

Yozma adabiyotning turli janrlarida maydonga kelgan asarlarga asos bo‘lgan manbalardan biri Aleksandr Makedonskiy haqidagi afsonalardir. Uning haqida G‘arb va Sharq mamlakatlarida juda ko‘p tarixiy va badiiy asarlar bitilgan. Aleksandr Makedonskiy obrazi uni bo‘rttirib izohlovchi, ilohiylashtiruvchi uydirma va to‘qima ta‘riflar orqali keng tarqalgan. Bu xil hangomalar esa turli afsona va rivoyatlarning yuzaga kelishiga turtki bergan. Bu tarixiy manba va afsona-rivoyatlar jahon xalqlarining og‘zaki va yozma ijodida yaratilgan badiiy asarlarga asos va turtki bo‘lgan. Shu jumladan, shoh Iskandar mavzusi Sharq klassiklarining “Xamsa”larida ham o‘z tasvirini topgan.

O‘tgan o‘quv yilidan boshlab Milliy o‘quv dasturiga ko‘ra boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan “O‘qish” va “Ona tili” darslari integratsiyalashtirilib, ta‘lim amaliyotiga “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslari joriy etildi. 1-2-sinflar uchun shu nomdagi darsliklar chop qilindi. Boshlang‘ich sinflardagi ona tili va o‘qish savodxonligining asosiy maqsadi bolalarning yosh xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda ularning og‘zaki va yozma nutqi hamda tafakkurini o‘stirish, shaxs sifatida shakllantira borish, ularda bilim olishga qiziqishni o‘stirish, faollik, mustaqillik, ijodkorlik kabilarni shakllantirish hisoblanadi.

Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning ma‘naviy olamini boyitishga muhim vazifa sifatida yondashiladi. Bu borada ertaklarni o‘qitishning katta ahamiyati bor desak, yanglishmaymiz. Ma‘lumki, ertaklar xalq og‘zaki ijodiyotining eng qadimiy ommaviy va keng tarqalgan janrlardan biridir. Ertaklar xalq og‘zaki ijodining epik turiga kiradi. Uning o‘ziga xos xususiyati – voqeabandligi, biror voqeani mukammal



hikoya tarzida bayon qilinishidir. Ertaklar turmush voqeligini ajoyib va g‘aroyib, jozibali qilib, kishilarda badiiy zavq uyg‘otadigan qilib aks ettiradi.

Boshlang‘ich sinflardagi ta‘lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari o‘rganilishi lozim bo‘lgan materialning mazmuni va tuzilishini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan boshlang‘ich sinflarda ko‘plab ertaklar o‘rganiladi. Xususan, 1-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligining “San’at va madaniyat” bo‘limidagi “Ertakdagi qahramon” mavzusi doirasida “Zumrad va Qimmat”, “To‘g‘rivoy bilan Egriboy”, “Uch og‘ayni botirlar” kabi o‘zbek xalq ertaklari haqida ma‘lumot beriladi hamda “Serkaboboning hiylasi” ertagi o‘rganiladi. 3- sinf “O‘qish kitobi” darsligida 12 bo‘lim bo‘lib, “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limida 3 ta ertak: “Halollik”, “Donishmand yigit”, “Ahillik- ulug‘ baxt” ertaklari berilgan. Darslikning “Jahon bolalar” adabiyoti bo‘limida esa “Anbe va Ranbe” hind xalq ertagi hamda “Dog‘da qolgan qarg‘a” laos xalq ertagi berilgan. 4-sinf “O‘qish kitobi” darsligida 12 bo‘lim bo‘lib, uning “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limida 2 ta ertak: “Davlat”, “Ziyrak uch yigit” kabi ertaklar mavjud. Boshlang‘ich sinflarda ertaklarni o‘qitish o‘qituvchilar oldiga quyidagicha talablarni qo‘yadi: 1) ertak matnlari asosida o‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlarini hosil qilish; 2) o‘quvchilarning matn mazmunini to‘la tushunishlariga erishish; 3) ertakdagi obrazlarni bir-biridan farqlay bilishga o‘rgatish; 4) o‘quvchilarni voqea-hodisalarni, hayotiy faktlarni, fantaziyani to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish; 5) o‘quvchilarning estetik zavq olishlariga erishish; 6) ertaklardagi qiyin so‘zlarning to‘g‘ri tushunilishini ta‘minlash; 7) o‘z axloqiy sifatlarini obrazlarning axloqiy sifatleri bilan qiyoslab ko‘rish orqali ma‘lum xulosa chiqarishlariga erishish; 8) o‘quvchilarning ertaklarni to‘liq holda ikkinchi shaxsga aytib berishlariga erishish.

Boshlang‘ich sinflarda ertaklarni o‘rganishda quyidagicha maqsadlar ko‘zda tutiladi: 1. Bolalarni barkamol inson ruhida tarbiyalash, ularda Vatan, jamiyatga muhabbat hissini tarbiyalash. 2. O‘quvchilarga xalq ertaklari materiallari bo‘yicha davlat ta‘lim standartlari asosida bilim berish. 3. O‘quvchilarda ertak materiallarini o‘qishga havas uyg‘otish. 4. O‘quvchilarning o‘qish, og‘zaki nutq malakalarini rivojlantirish. Boshlang‘ich sinflarda ertaklarni o‘rganish o‘qituvchidan darsda xilma-xil metodlarni qo‘llashni talab etadi. Boshlang‘ich sinflarda ertaklarni o‘rganishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin. 1. O‘quvchilarda ertaklarga qiziqish hissini uyg‘otish maqsadida, ularning leksik va sintaktik xususiyatlarini saqlagan holda, og‘zaki hikoya qilib beriladi va shunday hikoya qilib so‘zlash talab etiladi. Chunki ertak mazmunining o‘quvchilarga to‘la etib borishi uchun o‘qituvchi yoki o‘quvchi uni mustaqil badiiy hikoya qilib berishi kerak. 2. Ertak hikoya qilib berilgandan so‘ng, mustaqil o‘qitiladi, o‘qish jarayonida ayrim (tushunilishi qiyin) so‘zlarga izoh beriladi. 3. Ertakning g‘oyasi savol-javob yo‘li bilan ochiladi. 4. Ertak syujeti asosida rasmlar chiziladi. 5. Ertak qahramonlarining sifatleri hayotdagi ayrim kishilar xarakterlariga, sifatlariga solishtirib o‘quvchilar xulosalarini mustaqil

aytishlari o‘quvchilardan talab etiladi. 6. Ertak mazmuni asosida o‘quvchi aqliy faoliyatining rivojlantirilishiga doir mustaqil ish o‘tkaziladi.

Boshlang‘ich sinflarda ertak matnlari o‘qilganda, o‘quvchilaridan quyidagilar talab qilinadi:

1. Ertakdagi har bir so‘z va gapning ma‘nosini bilish.
2. Har bir mantiqiy tugallanmagan qismning ma‘nosini anglash va so‘zlab berish.
3. Ertakdagi asosiy va ikkinchi darajali fikrni topa bilish, ularni bir-biriga taqqoslay olish

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga
2. Murojaatnomasi.- <http://agroxizmat.uz/oz-OZ/president>
3. Boshlang‘ich ta‘lim konsepsiyasi // Boshlang‘ich ta‘lim, 1998, 6-son.
4. Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat Ta‘lim Standarti va o‘quv dasturi (Boshlangich ta‘lim).-Toshkent, 2017
5. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetic ijodi.-Toshkent: “O‘qituvchi”, 1990.
6. Qosimova K., Matchonov S.va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, 2009. 6. AzimovaI., Mavlonova K., Quronov S. va b. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta‘limning 1-sinfi uchun darslik. 1-qism.-Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2021.-104 b.
7. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S. va b. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta‘limning 1-sinfi uchun darslik. 2-qism.-Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2021.-104 b.
8. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S. va b. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta‘limning 2-sinfi uchun darslik. 1-qism.-Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2021.-120 b.